

## PEDAGOGIKA VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Yunusova Zuxraxon Taxirovna <sup>1</sup><sup>1</sup> Andijon davlat texnika instituti "Qurilish muxandisligi" kafedrasida katta o'qituvchisiE-mail: [yunusovazuxraxon8@gmail.com](mailto:yunusovazuxraxon8@gmail.com)MAQOLA  
MALUMOTI

## ANNOTATSIYA:

## MAQOLA TARIXI:

Received: 13.06.2025

Revised: 14.06.2025

Accepted: 15.06.2025

## KALIT SO'ZLAR:

pedagogika, shaxs,  
pedagogik jarayon, ta'lim-  
tarbiya, pedagogic  
mahorat, psixologiya, ijobiy  
muhit

Ushbu maqolada pedagogikaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, ta'lim tarbiya muassasalarida pedagogik mahoratning bugungi kunda juda dolzarbligi, ta'lim berish jarayonida pedagoglar talabalar bilan muomala madaniyatiga e'tabor berish kerakligi, pedagoglar har tomonlama yetuk shaxslar ekanligi, yoshlarga o'rnak bo'la oladigan fazilatlariga ega bo'lish kerakligi, bugungi kunda yoshlarning psixologik o'zgarish jarayonlari murakkablashib borayotganligi, har qanday holatda pedagog ijobiy muhitni yarata olishi kerakligi to'g'risida muhim ma'lumotlar ma'lumotlar beriladi.

**KIRISH.** Bugungi kunda fan texnika juda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga ta'lim tarbiya jarayonida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim tarbiya berish, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishshishi uchun davlatimiz tomonidan juda chiroyli shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Bunday sharoitlardan ta'lim beruvchilar ham, ta'lim oluvchilar ham unumli foydalanishi kerak. Buyuk allomalarimiz aytganidek bugungi kunni qaytarib bo'lmaydi. Har bir vaqtdan samarali foydalanishni, dastlab oilada otalarimiz, ta'lim maskanlarida esa pedagoglarimiz, yosh tarbiyalanuvchi bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalariga yetarli darajada o'zlarini tajribalaridan, ko'nikma va malakalaridan foydalanib yetkaza bilishi kerak. Ta'lim tarbiyani berish jarayonida pedagoglarning pedagogik mahorati katta ahamiyatga egadir. Bizga ma'lumki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mazmun – mohiyatini

tushuntirish, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak.

Tarbiya bu- ijtimoiy hodisadir. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Xonadonlarda kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini kelajak avlodga o'rgatib boradi. Pedagoglar o'z faoliyati davomida psixologiyani, yoshlar psixologiyasini bilish bilan birga psixologik vaziyatlardan, bir biriga salbiy ta'sir etmagan holda chiqib keta olishlari kerakligi uqtirib boriladi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar yig'indisidan so'ng, osha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun qoidalarni ishlab chiqish zaruratni taqozo etadi. Dars davomida pedagoglar hadislardan qisqacha ma'lumotlar berib songra dars mashg'ulotlarini boshlash maqsadga muvofiqdir. Bolani ongiga yetib borib sintez qiladigan, yosh xususiyatlariga mos bo'lgan rivoyatni aytib berish orqali dars jarayonida ularni faollashtirib olish maqsadga muvofiqdir. Darsni 5-6 minutini inson tarbiyasiga oid maqollar, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi qisqa fikrlarni aytish orqali ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish mumkin.

Pedagogikaning rivojlanishiga, mazmunan boyib borishiga maqollar, ertaklar, dostonlar, urf-odatlar, milliy anan'alarimiz katta ahamiyatga ega. Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal qilishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog har bir darsni mazmun mohiyatidan kelib chiqib turli metodlarni qo'llashi mumkin. Guruhlarda talabalarni faollik holatlari, o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab bir xil mavzuni turlicha metodlardan foydalanib o'tish mumkin. Ayrim guruhlarda talabalar o'ta sinchkov, zehni o'tkir, o'zlashtira olish qobiliyati kuchli talabalar yig'ilib qolgan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda darsni va talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujim usulidan foydalanib darsni tashkil qilish orqali maqsadga erishish mumkin. Aksariyat hollarda ayrim guruhlarda huddi ushbu mavzuni savol-javob orqali tashkil etish va talabalarni faollashtirib olish mumkin. Bunda pedagog mavzuni mazmun mohiyatini qanday usulda bo'lsa ham talabalar ongiga yetkaza olishi kerak bo'ladi. Shuning uchun bolalarning psixologik xususiyatlarini yaxshi o'rganishi kerak. Ayniqsa aniq va tabiiy fanlarni o'zlashtirishda tasavvur qilish, chamalash, xayolan hodisada ishtirok etish katta ahamiyatga ega.

Ilg'or pedagoglar tajribalarini o'rganish bilan birga, oddiy o'qituvchilarning faoliyatini ham o'rganib, solishtirib borish muhimdir. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi.

Bugungi kun tarbiyachilari pedagogika va psixologiyani mukkamal bilishlari kerak. Chunki bolalarning psixologiyasida hozirgi kunda bundan 20-25 yil avvalgi bolalar psixologiyasiga nisbatan juda katta farq bor..



Hozirhi zamon yoshlari o`ta tez va bir vaqtni o`zida bir necha sohalarni egallash imkoniyatiga egadirlar.Ular bilan do`stona munosabatda bo`lish orqaligina maqsadga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Д.А. НУРКЕЛДИЕВА, Я.Е. ЧИЧЕРИНА ИЛК , МАКТАБГА ЧА ВАКИЧИ  
К МАКТАБ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ ПСИХОЛОГИК , ПЕДАГОГИК  
КВАЛОГОПЕДИК ТЕКИШИРИШИ.

2.I.Xolliyev, J.Husanov Texnologiya. Ma`naviyat. Mahorat

3. 3.Taxirovna, Y. Z. (2023). FIZIKANI O`QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY  
VOSITALARDAN FOYDALANISH USULLARI. O`ZBEKISTONDA FANLARARO  
INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(22), 103-107.

4.U.Mirzayeva .“Zamonaviy ta`lim dastirlari –fizika fanini o`qitishda asosiy vosita  
sifatida”,

5.Z.T.Yunusova “O`zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarilishini rivojlanish  
bosqichlari” 19.12.2024 yil Farg`ona politexnika instituti Xalqaro miqyosdagi ilmiy va  
limit-texnik konferensiya.

6.Z.T.Yunusova “O`zbekistonda mikrogidroelektr stansiyalarni qurilishi va kelajakdagi  
ahamiyati” 20.12.2024 yil Farg`ona politexnika instituti Xalqaro miqyosdagi ilmiy va limit-  
texnik konferensiya

7. Z.T.Yunusova “Defirmatsiya choklari. Bino inshootlarida deformatsiya” Development  
of science ilmiy jurnal 2025/4 volume1ISSN 3030-3907 ISSUES OF INNOVATIVE  
DEVELOPMENT OF SCIENCE< EDUCATION AND TECHNOLOGY” Xalqaro ilmiy-  
amaliy onlayn anjuman 2022 yil 12 aprel,|